300.	Qayumova Maftuna Abdumalik qizi	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	«Samarqand viloyati sharoitida Aroniya (Aronia melanocarpa (Michx.) Elliott.)ning biologik xususiyatlari»	<p>Farm sanoatining nihoyatda taraqqiy etishi, dorivor o'simliklarga bo'lgan talab yildan yilga oshib bormoqda. Ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan dorivor preparatlarning qariyb 50 foizi o'simliklardan ajratib olinadi yoki ulardan tayyorlanadi. Tabobatda katta ahamiyatga ega bo'lgan alkaloidlar, saponinlar, efir moylari, vitaminli va boshqa moddalar ham o'simliklardan olinadi. Xozirgi vaktida Aroniya (Aronia melanocarpa (Michx.) Elliott.) mevalaridan dorilar olish ishlari Evropada va Osiyo mamlakatlarda tez sur'atda oshmoqda. Chunki, uning mevalari A, V<sub>1</sub>, V<sub>6</sub>, V<sub>12</sub>, K, S, E vitaminlarga boy bo'lganligi sababli Rossiya va Xitoyda keng qo'llaniladi. Tajribalar shuni ma'lum qiladiki, O'zbekiston sharoitida aroniyani chukur o'rganish, tadqiqotlar</p>	prof. Xaydarov X. Q.	O'zR FA Botanika instituti prof. Xojimatov O. Q.

				olib borish talab etiladi. Aroniyani biologik xususiyatlarini o'rganilib istiqbolli formalarini fermer xo'jaliklarida ko'paytirilsa, yig'ish punktlari tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.		
301.	Sariboyeva Gulasal Umar qizi	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Ayrim tur kaptarsimonlarning ekologiyasi	<p>Kaptarsimon qushlar keng tarqalganligi, sonining ko'pligi va yuqori ekologik plastikliги bilan ajralib turadi. Katta hududlarning o'zlashtirilishi sababli ayrim turlar ekologiyasida ham o'zgarishlar kuzatiladi, ularning sinantroplashuv darajasi o'sib boradi va ularning ovchilik xo'jaligi, qishloq va shahar xo'jaliklari, sog'liqni saqlash, aviasiya sohasidagi ahamiyati oshadi.</p> <p>Ayrim turlarning ekologik xususiyatlarini o'rganish asosida ularning tarqalishining umumiy qonuniyatlarini ochib berish, shuningdek, O'rta Osiyo tekislik mintaqalarining jadal o'zlashtirilishi kaptarsimon qushlarning hayotidagi mavsumiy holatlar va ularning ekotizimlardagi rolining o'zgarishini bashorat qilish imkoniyatlari yuzaga keltiradi. Ishda qushlar reproduktiv sikllarining o'ziga xos xususiyatlari – uyalash muddatlari, tuxum qo'yishi, tuxumlarining morfometrik ko'rsatkichlari, pushtdorligi, tuxum bosishi, polaponlarning tuxumdan chiqishi, postembrional o'sishi va rivojlanishi, ko'payish samaradorligi ko'rib chiqiladi. Alohida e'tibor ularning o'rmon, qishloq va ov xo'jaligi uchun amaliy ahamiyati, qushlarning biosenozlardagi roliga qaratiladi. Tadqiqotlar Bulung'ur va Jomboy tumanlari hududida olib boriladi.</p>	Dots. Fundukchiev S.E.	
302.	Umirzoqova Manzura Saloxiddinovna	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Karam agrotsenozi entomofaunasining ekologo-faunistik tahlili	<p>Qishloq xo'jaligi ekinlaridan olinadigan hosil miqdori agrotsenozlardagi ko'plab ekologik omillarga bog'liq. Bunday omillarning eng muhimlaridan biri entomofaunadir.</p> <p>Agrotsenozlarda tarqalgan hasharotlar, bir tomondan, o'simliklar bilan oziqlanib, hosildorlikni pasaytiradigan muhim omil bo'lsa, ikkinchi tomondan, zararkunanda hasharotlar bilan oziqlanish, chirindilar bilan oziqlanib, tuproqunum</p>	Dots. Xalimov F.Z.	



				<p>dorligini oshirish orqali hosildorlikni oshiradigan omildir. SHu sababli, agrotsenozlardagi entomofaunaning faunistik va ekologik jihatdan to'la tahlil qilish bu erdagi ekologik va ziyatni boshqarish imkonini berishi mumkin. Ayniqsa, sabzavot ekinlari, jumladan, karam agrotsenozlarida, zararkunandalarga qarshi kimyoviy vositalarni qo'llash xavli bo'lgan maydonlarda (mahsulot to'g'ridan-to'g'ri ist'molga tushgani uchun) tunday tadqiqotlarning ahamiyati yanada oshadi.</p> <p>Ushbu dissertatsiya ishida karam agrotsenozi entomofaunasining faunistik, taksonomik va ekologik tarkibi tahlil qilinadi, agrotsenozlar entomofaunasining ekologik strukurasi ochib beriladi. Entmofag hasharotlarning zararkunandalar sonini kamaytirishdagi samaradorligi baholanadi.</p>		
303.	Tojiyeva Niginaxon Alovidin qizi	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Oziqlanish tipiga bog'liq holda ayrim hayvonlarda ichak morfologistologiyasi	<p>Hayvonlar organizmining yashashi shartlaridan biri oziqlanish hisoblanadi, chunki ovqat organlar funksiyalarni bajarilishini ta'minlash uchun zarur energiya manbai va unung strukturaviy elementlarini qurish va yangilash uchun material hisoblanadi. Hazm qilish jarayoni yaxlit hazm qilish sistemasini tashkil etuvchi ayrim a'zolarida sodir bo'ladi. Bularga og'iz bo'shlig'i, halqum, qizilungach, oshqozon, ingichka ichak va yo'g'on ichak, shuningdek jigar va oshqozon osti bezi kiradi</p> <p>Ichak hosil bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlariga bo'lgan qiziqish ko'p yillar davomida so'ngani yo'q. Ushbu masala bo'yicha o'ziga xos ma'lumotlarning ko'pligiga qaramasdan, sut emizuvchi hayvonlar va qushlarda uning tuzilish va funksiyalarining qonuniyatlari to'g'risida umumqabul qilingan me'yorlarining morfologik mezonlari haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Patogenez va patologik jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlari to'grisidagi ma'lumotlar normal sharoitlarda ichak tuzilishi haqidagi aniq</p>	Dots. Allanazarova N.A.	

				<p>ma'lumotlarsiz olib bo'lmaydi. Buning uchun jinsiy xususiyatlarni , jumladan hayvonlarda kasallanishning ortishiga moyillik qayd etilishini hisobga olgan holda aniq me'yoriy ma'lumotlar olish lozim.</p> <p>Hozirgi vaqtda rasmiy veterinariya va tibbiyot sitologiya va gistologiya bilan faol hamkorlikda ichak kasalliklari va ularni oldini olish borasida tadqiqotlar olib bormoqda. Ushbu mavzuga oid tadqiqotlarga qiziqishning ortishi eng avvalo veterinariya, tibbiyot, sog'liqni saqlash masalalari, hazm siatemasi kasalliklarini oldini olishni rivojlanishi, sog'lom hayot tarzi uchun tavsiyalar ishlab chiqish va b. uchun juda muhimligi bilan tushuntiriladi. Tuzilmalar darajasida muammolarning yaxlitligi va o'zaro munosabatlari patogenez va patologiya evolyusiyasini o'rganish, patologik jarayonlarni davolash va oldini olish uchun asos bo'ladi va shuning uchun hayvonlarda hazm tizimini normal va patologik holatlarda o'rganish bilan bog'liq masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.</p>		
304.	Fayziyeva Sitora Iskandarovna	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	SamDU zoologiya muzeyi osteologik kolleksiyasining ilmiy va amaliy ahamiyati	<p>SamDU zoologiya kafedrasida osteologik kolleksiyalari dastlab tasodifiy topilmalar asosida to'plana boshlangan. Bu borada prof. M.E.Masson, Lev, Smirnova, D.N.Kashkarov kabilar tomonidan to'planib o'rganilgan. Asosan kolleksiyalar 60-yillardan boshlab kafedra professori b.f.d. B.X.Botirov tomonidan to'plangan. Paleozoologik ashyolar turli xil hayvonlarga, ayniqsa sut emizuvchi hayvonlar tarixiga ko'proq ta'aluqli. To'plangan kolleksiyalar to'rtlamchi davrda yashagan sut emizuvchi hayvonlarni suyak qoldiqlari asosida morfologik-anatomik tuzilishi, kelib chiqishi, o'sha davrning ekologik holatini, hayvonlarning qadimgi halqlar haoytidagi tutgan o'rni to'grisida, ovchilik, xonakilashtirish – xo'jalik yuritish muammolarini ochishda ilmiy va nazariy ahamiyatga ega bo'ladi.</p>	Prof.Jabbarov A.R.	
305.	Dilmurodov	5A140101-Biologiya	Qoratepa tog' massivi	Tylenchida turkumining Anguininae kenja oilasi	Dots. Xakimov N.X.	

	Obidjon Sanaqul o'g'li	(fan yo'nalishi bo'yicha)	yovvoyi o'simliklari orasida Anguininae kenja oilasi nematodalarining tarqalishi	o'simliklarda parazitlik qiluvchi ko'pchilik turdagi nematodalarni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda jahon miqyosida mazkur kenja oilaga mansub turlarni o'simliklar orasida tarqalishi, bioekologik xususiyatlari, xo'jayin o'simliklar bilan bog'langanlik darajasi kabi xususiyatlari keng o'rganilmoqda. Qo'lga kiritilgan faunistik tadqiqotlar ma'lumotlaridan esa o'simliklarni biologik usulda himoya qilish uchun foydalanish mumkin bo'lmoqda. Respublikamizda ham Anguininae kenja oilasining parazit turlari haqida ba'zi faunistik ma'lumotlar berilgan (Sanayeva, 2011; Narzullayev, 2018). Ammo ushbu parazit nematodalarning biologik xususiyatlari va o'simliklar orasida tarqalish xususiyatlari to'g'risida yetarli ma'lumotlar mavjud emas. Tanlangan mavzu bo'yicha oldinga qo'yilgan vazifalarning muvafaqqiyatli hal etilishi nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'ladi.		
306.	Nasimova Surayyo Abduxamidovna	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Miyonqol oroli tuproq koleoptera faunasi.	Hasharotlar orasida qo'ng'izlar katta amaliy ahamiyatga ega. Ularning asosiy qismini tuproq koleoptera faunasi tashkil qiladi. Tuproq koleoptera faunasini o'rganish ham amaliy ham nazariy ahamiyat kasbetadi. Tuproq qo'ngizlari birinchidan tabiatda oziq zanjirida ishtirok etib, organizmlar o'rtasida trofik aloqani taminlasa, ikkinchidan qishloq xo'jaligida ekinlarning asosiy zarar kunandalai hisoblanadi. Bundan tashqari tuproqni yumshatishda uniorganik o'g'itlar bilan boyitishda katta ahamiyatga egadir	Dots. Abdullayev E.N.	
307.	Muxtorov Aktam Uktamovich	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Samarqand shahrida uchrovchi kaptarsimonlar turkumiga mansub kushlarning uyalash ekologiyasi	Kaptarsimonlar turkumi vakillaridan kichik musicha, xalkali musicha eki Kumri, govkaptarlar Samarkand shaxri sharoitida keng tarkalgan bulib insonlardan chuchimaydi, ular bilan enma-en yashashadi. Kichik musicha sharoit bulsa xatto kish oylarida xam kupayishni davom ettiradi. SHu jixatdan olib karalganda ushbu turkum vakillarining uyalash ekologiyasini urganish dolzarb xisoblanadi.	Dots. Raxmonova Z.P.	
308.	Xudayberdiyev	5A140101-Biologiya	Tovuqlar boqiladigan	Bugungi kunda mamlakatimizda yaratilgan yangi	Ruziyev Yunus	Ubaydullayeva

	Shohzod Shermatovich	(fan yo'nalishi bo'yicha)	muhitni yaxshilashning ayrim fiziologik ko'rsatkichlariga va mahsuldorlikka ta'sirini o'rganish	imkoniyatlar natijasida tovuqlarning bosh soni kundan-kunga oshib bormoqda va tovuqlarning mahsuldorligini yanada oshirish uchun boqiladigan muhitni yaxshilash, ularga tabiiy erkin sharoit yaratish yo'li bilan mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirish va sifatini yaxshilashni o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Tovuqlarning yashash muhitini turli xil yo'llar bilan yaxshilash orqali ularning fiziologik jarayonlari va mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ta'sir mexanizmlarini o'rganish nazarda tutiladi.	Samandarovich, PhD, dotsent	Zuxra Ibragimovna tibbiyot fanlari doktori
309.	Oxunova Surayyo Sobirjonovna	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Quyonglar ratsionini probiotiklar bilan boyitishning qon oqsillari ko'rsatkichlari va mahsuldorligiga ta'siri.	Quyonglarning ozuqa ratsioniga probiotiklarni qo'shishning quyonglar fiziologik jixatlari va qon oqsillari ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek ularning o'sishi va rivojlanishiga, tabiiy chidamliligiga, fiziologik ko'rsatkichlariga hamda mahsuldorligini o'zgarishlari o'rganiladi.	Hayitov Davron G'aybullayevich. PhD. dotsent	Ubaydullayeva Zuxra Ibragimovna tibbiyot fanlari doktori
310.	Bozorova Shahnoza Bahridin qizi	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Tovuqlar organizmida to'yimli oziq moddalarning hazimlanishida sut zardobining ta'siri.	So'ngi paytlarda mamlakatimizda yaratilayotgan imkoniyatlar tovuqlarni urchitish ularning mahsuldorligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ananaviy ozuqalar bilan oziqlantirish jarayonida ularni yuqori darajada hazimlanishi muhim ekanligini inobatga olib, ozuqa tarkibiga sut zardobini kiritishning ijobiy jihatlarini aniqlash amalga oshiriladi. kundan kunga ortib bormoqda, tabiiyki ushbu vaziyatda har tomonlama qulay bo'lgan ozuqalarni oziqlantirishda qo'llash va mavjud ozuqalarning hazimlanish ko'rsatkichlarini yaxshilash bugungi kunning dolzarb masalalardan hisoblanadi. Tadqiqotlar davomida ratsionning kimyoviy tarkibi, ratsionning tarkibiga sut zardobining ta'siri, to'yimli moddalarning hazimlanish ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilib, natijada tovuqlarning ratsional ovqatlanishini to'g'ri tashkil qilish orqali mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirishga erishish mumkin.	Kuziyev Mirzohid Sa'dullayevich PhD. dotsent	b.f.n. Aliyev Dilmurod Davranovich
311.	Normuhammedova Feruza Shavkatjon qizi	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Turli ratsionlar tarkibining quyonglar organizmidagi to'yimli moddalarning	Turli tarkibga ega bo'lgan ratsionlar (kontsentrat, kuk o'tlar, ildiz mevali, aralash) bilan oziqlantirilgan quyonglar oshqozon-ichaklar	Rajamuradov Zayniddin Turabovich	

			hazmlanishiga va azot almashinuviga ta'siri	tizimida moddalarning hazmlanishiga va organizm to'qima va hujayralarining qurilish materiali bo'lgan azot elementi almashinuviga ta'siri o'rganiladi. Olingan natijalardan fermer xo'jaliklari uchun oziqlanish ratsionlarining tarkibi va oziqalarning turlari bo'yicha miqdori aniqlanib ishlab chiqarishga tavsiya etiladi. Tekshirishlar natijasida har bir turga xos bo'lgan oziqalar tarkibidagi to'yimli moddalar; quruq modda, yog', kletchatka, azotsiz ekstraktiv moddalarning har birini hazmlanish miqdorlari va hazmlanish koeffitsentlari haqida ma'lumotlar olinadi va ulardan ratsionlarni shakllantirishda foydalaniladi.	biologiya fanlari doktori, professor	
312.	Utaboyev Xudoyberdi Orifovich	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Qorako'l qo'ylarini urchitishda yaylov o'simliklarining yil fasllari bo'yicha o'zgarishi va mahsuldorlikka ta'siri	Yil davomida yaylovlarda haydab boqiladigan qorako'l qo'ylari turli xil yaylov o'simliklarini iste'mol qiladi. Bu o'simliklar yilning to'rt faslida turlicha fizik kimyoviy, biokimyoviy tarkibiga ega bo'ladi. Ularning to'yimlilik darajasi ham yil fasllariga mos holda o'zgarib boraveradi. Bu esa o'z navbatida qorako'l qo'ylarini mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatadi. Kutiladigan natija: Yil davomida fasllar o'zgarishi bilan yaylovlarning mahsuldorligining o'zgarishi va uning qo'ylarning ehtiyojini qondirish imkoniyati haqidagi ma'lumotlar olinadi.	Bozorov Bahridin Mahammadiyevich. B.f.n., dotsent	
313.	Naxangova Dilsora Tavakkal qizi	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Qoramollar ratsionini innovatsion yaxshilashning ayrim fiziologik va mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ta'siri.	Mavzu Uzbekiston Respublikasi Prezidentining "Oziq-ovqat xavfsizligi" haqidagi farmon va ko'rsatmalari, aholini oziq-ovqat maxsulotlari bilan sifatli va uzluksiz ta'minlash dasturi bilan bevosita bog'liqdir. Magistrlik dissertatsiyasida qoramollarni turli ratsionlar bilan oziqlantirishning ayrim fiziologik ko'rsatkichlari va mahsuldorligiga ta'siri o'rganiladi. Tajribalar qoramolchilik majmualariga va eng oxirgi innovatsion sut, qon va go'sht maxsulotlarini analiz qiluvchi uskunalarga ega "VST va TST" klaster maydonlarida olib boriladi.	Zaripov Bakridin biologiya fanlari doktori, professor	
314.	Ochilova Parvina Odilovna	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Qo'ylarning ayrim fiziologik ko'rsatkichlariga yod mikroelementining	Qishloq xo'jalik hayvonlarining fiziologik ko'rsatkichlarini meyorida bo'lishini ta'minlash, ko'paytirish va ulardan olinadigan mahsulotlar	Rajabov Asatillo Irgashevich b.f.n., professor	

			ta'siri	sifati va miqdorini oshirish borasida ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari, naslchilik xo'jaliklar tashkil qilingan. Yurtimizda qo'ylarni ko'paytirish va naslini yanada yaxshilash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ularning sog'ligini ta'minlashda oziqlantiriladigan ozuqa tarkibida mikroelementlarning miqdoriy ko'rsatkichlari juda muhim hisoblanadi. Hayvonlarni ratsional oziqlantirishda mikroelementlardan yodning oziq tarkibidagi miqdoriy ko'rsatkichi alohida ahamiyat kasb etadi.		
315.	Suyunova Sevara Ilxomjon qizi	5A140101-Biologiya (fan yo'nalishi bo'yicha)	Broyler tovuqlarini parvarishlash va mahsuldorligini oshirishning fiziologik asoslari	<p>Ma'lumki mamlakatimizda bugungi kunda parrandachilikka katta e'tibor qaratilmoqda.</p> <p>Xususan turli go'sht yo'nalishidagi tovuq zotlarini yetishtirish axolini sifatli, parxezbop go'sht maxsulotlari bilan ta'minlash dolzarb masalalardandir. Shu borada tez semiradigan, unchalik ko'p xarajat talab etmaydigan va katta foyda olsa bo'ladigan broylerlarni yetishtirish fiziologik-biologik ahamiyatga ega. Uy sharoitida go'sht uchun broyler tovuqlarini yetishtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega.</p> <p>Ishda broyler tovuqlarini uy sharoitida yetishtirish usullari, broyler go'shtini yetishtirishda zamonaviy krosslardan foydalanishning afzalliklari, broyler tovuqlarining qoni tarkibi, ozuqa ratsioni, ozuqaning hazmlanish jadalligi, go'shtining fiziologik-biokimyoviy tarkibi to'liq o'rganiladi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi.</p>	Bozorov Baxritdin Maxammadiyevich, b.f.n., dotsent	
316.	Турсунбоев Олмос Вахоб ўғли	5A140202-Физика (йўналишлар бўйича)	Явление акустооптической дифракции в водных растворах.	Целью работы является применение метода акустооптической дифракции для изучения скорости звука в водных растворах неэлектролита.	ф.-м.ф.д., доц. Семенов	ф.-м.ф.д., в.н.с..Коххаров А. Ўз ФА Ион-плазма ва лазер технологиялари институту,

317.	Artikova Gulnora Maxmudovna	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Keyk qatlam hosil bo'ladigan filtrlash jarayonining teskari masalarini sonli yechish	<p>Mazkur magistrlik ishi mavzusi korrekt bo'lmagan muammolar nazariyasining zamonaviy tadqiqot yo'nalishlaridan biri - keyk qatlam hosil bo'ladigan filtrlash jarayonining teskari masalarilariga bag'ishlanadi. Bunday masalalar teskari Stefan masalalari ham deb yuritiladi va klassik Stefan masalasida berilgan tenglama koeffisientlarini, chegara shartlarini yoki tenglamadagi funksiyalarni aniqlashdan iborat bo'ladi. Bunday muammolarining dolzarbligi shundan iboratki, bir qator hollarda ularning yechimini kompyuter texnologiyalaridan foydalanganda hisoblash murakkab stasionar bo'lmagan jarayonlar bilan tadqiqotning deyarli yagonaligidir.</p> <p>Bu ayniqsa, filtrlash jarayonida keyk qatlamning o'sib borishi bosimga bog'liqligini hisobga olish talab etiladi, bu esa jarayonning kvazichizikli modellarini ko'rib chiqish zarurligiga olib keladi. Shu bilan birga, bu tipdagi masalalarni sonli yechishi ularning chiziqlimas va korrekt bo'lmaganligidan juda katta hisoblash qiyinchiliklariga olib keladi. Mazkur ishda amaliy muammolarning murakkabligi va kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga bog'liq holda ushbu korrekt bo'lmagan masala uchun hisoblash algoritmlarini ishlab chiqiladi va sonli natijalar olib tahlil qilinadi.</p>	dots., (PhD) U.J.Saydullayev	f-m.f.d., prof. B.X.Xujayorov
318.	Tuymayev To'lqinjon Abdualim o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Molekulalarning aylanma Broun harakatida inersion effektlarini hisobga olish.	<p>Korrelyasion funksiyalar metodini qo'llagan holda kondensirlangan muhitlarda molekularning aylanma Broun harakati hamda inersion effektlar natijasida yorug'likning sochilish spektrlarida ularning hissasini hisobga olish amalga oshiriladi. Ma'lumki sferik bo'lmagan molekularlardan tashkil topgan muhitlarda mazkur effektlar yanada kuchliroq namoyon bo'ladi.</p>	k.o'q. Umiddullayev Sh	f-m.f.d., prof. R.M. Ibadov
319.	O'rinboyev Nodir Mavlon o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Mayda dispersion muxitda yorug'lik sochilishi indikatrissasini tadqiq qilish	<p>Suyuqliklardagi nonostrukturaviy jarayonlarning o'rganishda yorug'lik sochilish intensivligining burchakga bog'liqligini o'rganish orqali suyuqliklardagi fazaviy o'tishlarni zarralar</p>	f-m.f.d., prof. L.M. Sabirov	ass. Ismoilov F.

				o'lehamlarini ularning Gidradinamik radius diffuziya koeffitsientlari tog'risida keng ma'lumotlar olish imkonini beradi ushbu usul bilan tadqiqotlar o'tkazilganda muhitning g'alayonlanishi kuzatilmaydi bu esa o'lchashlarning aniqligini ta'minlaydi.		
320.	Abdirasulova Moxigul Aliboy qizi	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Skalyarlangan qora tuynuklarning kritik yechimlari	Eynshteyn-Maksvell-skalyar modellari klasidagi olingan skalyar sochli zaryadlangan qora tuynuklarni ko'rib chiqamiz. Bu yerda skalyar maydon Maksvell invarianti bilan to'rtinchi darajali bog'lanish funksiyasi bilan bog'lanadi. Bundan tashqari Reissner-Nordstrom qora tuynuklar modellari skalyar sochlariga ega bo'lgan qora tuynuklarni mavjud bo'lishini ham bildiradi. Ushbu sochli qora tuynuklarning mavjudligini tekshiramiz. Ularni kritik holatlari: cheklash konfiguratsiyasi zaryadning muhim qiymatida, fazo-vaqtini ikki qismga bo'linishida sodir bo'ladi: cheklangan skalyar maydonga ega bo'lgan ichki fazo- vaqti va Reissner-Nordstromning tashqi ekstremal fazo-vaqti. Bunday holat birinchi marta gravitatsiyalanuvchi Abel bo'lmagan magnit monopollarda va ularning sochli qora tuynuklari sharoitida kuzatilgan.	f-m.f.d., Prof. R.M. Ibadov	akademik. M.M.Musaxonov
321.	Ergashov Feruzbek Normumin o'gli	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Atomlar dastasi parametrlarini lazer spektroskopiya metodi bilan tadqiq qilish.	Bugungi kunda neytral atomlar dastasi yarim o'tkazgichlar texnologiyasida va o'ta toza moddalar olish texnologiyalariga chuqur vakuum sharoitida qo'llanilgan. Lekin atomlar dastasining parametrlari: Xususan tarqalish kengligi konsentratsiyasi, fazaviy taqsimlanishi qanday faktorlarga bogliqligi kam o'rganilgan. Magistrlik dissertatsiyaning maqsadi shu bog'lanishlarni o'rganishga bag'ishlangan	f-m.f.d., prof. N.B.Eshqobilov	f-m.f.d., prof. L.M. Sabirov
322.	Islomov Musaxon Abdurahim o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Vodorodsimon atomlarning Ridberg spektrlarini nazariy hisoblash.	Atomlarning yuqori o'ygongan Ridberg xolatlarida ko'zatilgan spektroskopik jarayonlarni to'g'ri va to'liq taxlil qilish uchun tajriba natijalarini olishdan oldin nazariy hisoblashlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Chunki bosh kvant sonining yuqori qiymatlari (n=50,100) spin –	f-m.f.d., prof. N.B.Eshqobilov	f-m.f.d., prof. L.M. Sabirov



				orbital o'zaro ta'sir natijasida spektrlar siljiydi yoki kichik tashqi maydon ta'sirida Shtark yoki Zeyeman effektlari paydo bo'ladiki, natijada spektrlar murakkab shaklga keladi. Shu sababli magistrlik dissertasiya ishining maqsadi Ridberg –Rits formulasi orqali nazariy xisoblashlarni o'tkazishdan iborat		
323.	Hazratqulova Gavharoy Muxutdin qizi	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Eynshteyn-skalar-Gauss- Bonnet nazariyasida spin bilan bog'liq qora tuynuk skalarizatsiyasi	Skalyar maydoni topologik Gauss-Bonnet hadi bilan kvadratik ravishda bog'langan modellar sinfida spin bilan bog'liq skalyarizatsiya bilan qora tuynuk yechimlarini ko'ramiz. Tachyonik jihatdan beqaror Kerr yechimlaridan boshlab, biz skalyarlangan maydon juft yoki g'alati tenglikka ega bo'lishi uchun skalyarlangan qora tuynuklar oilalarini olamiz va ularning mavjudligini tekshiramiz. Skalyarlangan qora tuynuklar Kerrning aylanish chegarasini buzishi mumkin. Metall funksiyalar va ufqdagi skalyar maydonining kengayishi endi haqiqiy koeffitsiyentlarga imkon bermasligi uchun biz skalyarlangan qora tuynuk yechimlarining "muhim" oilalarini aniqlaymiz. Bu yerda ko'rib chiqilgan kvadratik bog'lanish uchun spin indukali skalyarizatsiyaga ega bo'lgan eritmalar entropik ravishda Kerr yechimlariga nisbatan bir xil massa va burchak impulsiga ega.	f-m.f.d., Prof. R.M. Ibadov	akademik. M.M.Musaxonov
324.	Shermatov Abubakir Bahranovich	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Etilenglikol va uning eritmalarida molekulyar komplekslarni hosil bo'lish mexanizmini o'rganish.	Ushbu magistrlik dissertatsiyasida murakkab molekulyar tuzilishga ega bo'lgan etilenglikolning suyuq holatida molekulyar komplekslarni hosil bo'lish mexanizmlari va ular orasidagi molekullararo o'zaro ta'sirlar kombinatsion sochilish usuli va noempirik hisoblashlar yordamida o'rganiladi.	prof. A.Jumabayev,	dots. G'.Murodov
325.	Qurdoshev Ma'rufjon Mahmud o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Suyuq propion kislotasida molekulyar agregatlarni hosil bo'lishi va ularning kombinatsion sochilish spektrlari.	Ushbu ishda propion kislotasida molekulyar agregatlarni hosil bo'lishi noempirik hisoblashlar yordamida o'rganiladi. Propion kislotasining turli (monomer, dimer, trimer) agregatlarini kvantoximik metodlar yordamida moellashtirladi hamda elektro-optik xarakteristikalarini aniqlanadi.	prof. A.Jumabayev,	dots. G'.Murodov

				Natijalar tajribada olingan kombinatsion sochilish spektralari bilan solishtiriladi.		
326.	Mirov Mirjavohir Faxriddinovich	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Organik erituvchilarning protonoakseptor va protonodonor xususiyatlarini o'rganish spektral-lyuminestsent usul	Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi: organik erituvchilarning protonoakseptor va protonodonor xususiyatlarini spektral-luminesans usul bilan o'rganish. Indikator sifatida turli xil molekulyar shakllarda rodamin bo'yoqlari eritmalaridan foydalanish rejalashtirilgan.	prof. N.N.Nizomov	dots. E.Kurtaliyev
327.	Omonova Nafosat Axatqul qizi	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Polimerli eritmalarining reologik xossalari	Ushbu magistrlik dissertatsiyasida adabiyotlar asosida polimerli eritmalarining reologik xossalari polimerning strukturasi va molekulyar massasiga qarab o'rganiladi va shu asosida xulosalar chiqariladi.	dots. U.B.Jurayev	prof. A.Jumabayev
328.	Rahmatov Bekzod Mansur o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Polimerlarning kompozitsion xossalari	Ushbu magistrlik dissertatsiyasida adabiyotlar asosida polimerlarning kompozitsion xossalari ularning ximiyaviy tarkibi, strukturasi va molekulyar massasiga qarab o'rganiladi va shu asosda xulosalar chiqariladi.	dots. U.B.Jurayev	prof. A.Jumabayev
329.	Hasanov Toyir Xoliqul o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Vodorod bog'lanishli komplekslarda galoido-vodorodlarning (HF) tebranish polosasining formasini o'rganish	Ikki atomli vodorod ftorid molekulasi tebranma aylanma spektri vodorod bog'lanishli kompleks hosil bo'lishi natijasida past chastota tomonga siljiydi va murakkab strukturali yangi polosa paydo bo'ladi. Bu polosa nazarini tahlili spektroskopiyada muhim amaliy ahamiyatga ega.	dots.G'.Murodov	dots.H.Xushvaqto'v
330.	Dursoatov Abdullo Chori o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Monokarbon kislotalarida COON guruhning molekulararo o'zaro ta'sirdagi roli va ularning kombinatsion sochilish spektrlari.	Ushbu ishda monokarbon (chumoli, uksus, propion, yog') kislotalari tarkibida bo'lgan SOON guruhning molekulararo o'zaro ta'sirlarga faolligi va molekulyar klasterlar hosil bo'lishida ishtirokini kombinatsion sochilish va noempirik hisoblashlar orqali o'rganish va umumiy xarakteristikalarini aniqlash.	dots.H.Xushvaqto'v	prof. A.Jumabayev
331.	Tojiyev Shahzod Ixtiyor o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Metilbenzol va uning eritmalarini tebranish spektrlari va nazariy hisoblashlar yordamida o'rganish	Ushbu magistrlik dissertatsiyasida metilbenzol va uning eritmalarida molekulyar komplekslarning hosil bo'lish mexanizmi kombinatsion sochilish spektrlari hamda noempirik hisoblashlar yordamida o'rganiladi.	dots.A.Absanov	dots.H.Xushvaqto'v
332.	Suyarova Yulduz Akrom qizi	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Kvanto-ximik hisoblashlar orqali dimetilsulfoksid va	Ushbu ishda dimetilsulfoksid va uning eritmalarida molekulyar agregatlarning hosil	dots. Z.Mamatov	dots.A.Absanov

			uning eritmalarida molekulyar agregatsiyalarni o'rganish.	bo'lish mexanizmi nazariy ravishda o'rganiladi. Kvanto-ximik hisoblashlar orqali elektro-optik parametrlar aniqlanadi		
333.	Tursunov Shokir Toyirovich	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Sbt bo'yoq va uning homodimerlarining eritmalarini spektral-luminessent va fotokimyoviy xususiyatlari.	Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi quyidagilardan iborat: stirlitsyanin bo'yoqlari Sbt va uning Dbt-5 va Dbt-10 bo'yoq homodimerlarining spektral lyuminestsent va fotokimyoviy xususiyatlariga bo'yoq tuzilishi, konsentratsiyasi va hal qiluvchi tabiatini ta'siri o'rganish. Asosiy spektral-lyuminestsent xususiyatlar aniqlanadi: ekstinktsiya koeffitsienti ( $\epsilon$ ), ossillyator kuchi ( $f_e$ ), o'yg'ongan holat yashash vaqti ( $\tau$ ), fluoessentsiyaning kvant chiqishi (B), 0-0 o'tish chastotasi ( $\nu_{0,0}$ ) va Stoks siljish kattaligi (SS). Bundan tashqari, yuqoridagi birikmalarining eritmalarining fototurgunligini tekshirish rejalashtirilgan.	dots.E.Kurtaliyev	prof. N.N.Nizomov
334.	Norqulova Matluba Mamatmurod qizi	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Yarim o'tkazgichli birikmalarda amorflashuvning kritik dozasini hisoblash	Yarim o'tkazgichlar fizikasining rivojlanishi texnika va texnologiyalarda katta o'zgarishlarga olib keldi. Bugungi kunda yarim o'tkazgichli birikmalarda ionlar implantatsiyasi jarayonida amorflashuv muhim muammolardan biri bo'lib hisoblanadi/ Amorflashuvning kritik dozasini nazariy hisoblash va uni tajriba natijalari bilan solishtirish ko'pgina iqtisodiy muammolarni hal qilishga yordam beradi Ushbu magistrlik dissertatsiyasi doirasida yarim o'tkazgichli birikmalarda amorflashuvning kritik dozasini hisoblash masalasi qo'yilgan.	f-m.f.n dots.E.U.Arziqulov	f-m.f.n dots.F.Salaxitdinov
335.	Umrzoqov Farrux Baxtiyor o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Vakuumda elektronlar bombardirovkasi usuli bilan moddalarning yupqa qatlamlarini hosil qilish.	Kremniy sirtida terbiyning yupqa qatlamini olish va uning elektrofizik xossalarni tadqiq qilish. Terbiy lantonoidlar toifasiga kirib, noyob fizikaviy xossalarni majmuasiga ega bo'lgan o'ziga xos nodir metall hisoblanadi. Na faqat o'zi, balki uning bir qator qotishmalari va birikmalari ham shunday xossalarga ega. Terbiyning bir qator birikmalarida gigant magnitostriksiya kuzatilgan. Shu sababli, zamonaviy elektronikaning asosiy materiallaridan biri bo'lgan kremniy sirtida terbiyning yupqa qatlamini hosil qilish va uning elektrofizik	f-m.f.n dots.S.Q.Axrorov	f-m.f.n dots.T.U.Toshboyev

				xossalarini o'rganish na faqat ilmiy tomondan, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatlidir.		
336.	Sharipov Sharofiddin Arslonqul o'gli	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Ionlar almashinadigan silikat shisha qatlamlarining xususiyatlarini o'rganish.	Integral optikaning rivojlanishi ayniqsa amorf materiallardan shishalarning to'lqin o'tkazgich xarakterga ega ekanligining ochilishi EHM texnikasida eng tez hisoblash mashinalari yaratishga imkon bermoqdi. Shishasimon materiallarning optik xususiyatlarini yaxshilash bilan undan kelgusida elektron qurilmalarda va quyosh energetikasida foydalanish mumkin. Shuning uchun ushbu ishda amorf materiallarni past haroratlarda ion almashirish tjarayonini va fiziko-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishini o'rganishdan iborat.	f-m.f.n dots.A.A.Eshbekov	f-m.f.n dots.S.Q.Axrorov
337.	Oblaqulov Elbek Akromjon o'gli	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Zol-gel usulida olingan kvarts shishalarda nurlanish ta'sirida hosil bo'ladigan radiatsion markazlarni o'rganish.	Radiasion fizikaning asosiy masalalaridan biri bo'lgan nurlanishning qattiq jismlarda paramagnit va boshqa xususiyatlarining o'zgarishiga ta'sirini o'rganish hisoblanadi. Qattiq jismlarning xususiyatlarini o'rganish ayrim nuqsonlar to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni beradi. Ushbu ish silikat shishalar sirt qatlami xususiyatlarini radiasiya ta'sirida bo'ladigan o'zgarishini o'rganishga bag'ishlangan. Radiatsiya ta'sirida shishalarning xususiyatlarini o'rganish bilan undan quyosh konsentratrlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.	f-m.f.n dots.A.A.Eshbekov	f-m.f.n dots.E.U.Arziqulov
338.	Nurqobilov Shoxboz Baxtiyor o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Kristallarda fotolyuminessensiyani o'rganish	Ushbu magistrlik dissertatsiya ishida yarimo'tkazgichlarning fotolyuminessensiyasini o'rganish uchun MDR23 spektrometrining formal rejimi yordamida o'ranish.	f-m.f.n dots.F.Salaxitdinov	f-m.f.n dots.E.U.Arziqulov
339.	Ruziqulov Shaxboz Tulxinovich	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Yuqori diffuziyalangan Si<Ni> va Si<Co> kremniyli quyosh elementlarining galvanomagnit, magnitotransport xossalarini tadqiq qilish.	Hozirga paytda quyosh energiyasidan oqilona foydalanish hamda shu sohada ishlatilayotgan yangi tur materiallarini yaratish va ishlab chiqish, shuningdek ishlab chiqarilayotgan quyosh elementlarining foydali ish koeffitsientini oshirish ilm fan oldida turgan muhim masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan mazkur magistrlik dissertatsiya ishida yarim o'tkazgichli kremniy namunasiga temirning o'tish guruhi elementlari bo'lgan Ni va Co ni diffuziya qilish orqali ularning	f-m.f.n dots.T.U.Toshboyev	f-m.f.n dots.S.N.Srajev

				galvanomagnit, magnitotransport xossalarini o'rganish vazifasi qo'yildi.		
340.	Mardonov Amirjon Suxrobovich	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Yorug'lik nur sindirish ko'rsatkichining harorat ta'sirida o'zgarishiga spontan qutblanish vektori fluktuatsion o'zgarishlarining qo'shgan hissasini hisoblash	Segnetoelektrik kristallarning texnikada keng qo'llanilishi, ularda kuzatiladigan fizik jarayonlarni o'rganishga bo'lgan talabning oshishiga olib keldi. Temperatura o'zgarishi bilan segnetoelektrik kristallarda fazaviy o'tishlar sodir bo'ladi, ularni tahlil qilish natijasida termik tuzatmalar kiritib, materiallarning qo'llaniladigan temperatura diapozonini kengaytirish mumkin. Shuning uchun ushbu magistrlik dissertatsiyasida yorug'lik nur sindirish ko'rsatkichining temperatura ta'sirida o'zgarishiga spontan qutblanish vektorining qo'shgan hissasini hisoblash va fazaviy o'tish temperaturasining quyi qismida fluktuatsion o'zgarishlarini o'rganishdan iborat.	f-m.f.n dots.B.N.Shermatov	f-m.f.n dots.S.Q.Axrorov
341.	Boboxonov Abrorxon Murodjon o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Yuqori temperaturali diffuziya usuli yordamida kremniy asosidagi quyosh elementlarini hosil qiluvchi qurilmani yaratish.	Kremniyli quyosh elementlarini yaratishda an'anaviy diffuziya usuli bilan kirishma kiritish belgilangan yuqori temperaturali termodinamik sharoit va diffuziya jarayoni uchun o'ta toza muhitni talab qiladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda mazkur magistrlik dissertatsiya ishida turg'un termodinamik muvozanatga ega bo'lgan diffuzion pech va yuqori vakuumli muhitni yaratish uchun so'rish qurilmasi ishga tushiriladi. Buning yordamida yarim o'tkazgich namunalari diffuziya usuli bilan kirishma kiritish va ularning xossalarini o'zgartirish orqali yuqori samarali quyosh elementlarini yaratish mumkin.	f-m.f.n dots.T.U.Toshboyev	f-m.f.n dots.S.N.Srajev
342.	Egamova Gulshan Karim qizi	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Iqtidorli o'quvchilar maktablarida fizikani (elektromagnetizm bo'limini) o'qitishda Blumm taksanomiyasini qo'llash.	O'qitish jarayoniga Blumm taksanomiyasini qo'llash amaliy vaziyatlarni xal etish jarayonida o'rganilgan o'quv mavzusi bo'yicha bilimlarni takrorlash va mustaxkamlashga, muammolarni taxlil qilish va yechimni yakka tartibda hal qilish ko'nikmalarini egallashga, ijodiy va o'rganish qobiliyatlarini, mantiqiy fikrlash, nutq va muxit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mantiqiy qabul	Prof. O.Q.Quvondiqov	Prof.O'.T.O'sarov

				qilishga va o'z-o'zini nazorat qilishga yordam beradi. Shu maqsadda ushbu dissertasiyada fizikani (elektromagnetizm bo'limini) o'qitishda o'zlashtirish jarayonini Blumm taksanomiyasini qo'llash orqali qarab chiqiladi.		
343.	Akaboyev Isomiddin Nasriddin o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Amorf metal qotishmalarning elektr va magnit xossalarini Myasbayer spektroskopiyasi orqali tadqiq qilish	Amorf metal qotishmalarning amorf va suyuq holda elektr va magnit xossalarini o'lchash juda dolzarb masaladir. Ayniqsa bu suyuqliklarda amorf holadda ferro- va antiferromagnitizm qonuniyatlarini aniqlash va ularni magnitizm mavjud nazariyalari orqali tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda ushbu dissertasiyada Amorf metal qotishmalarning elektr va magnit xossalarini Myasbayer spektroskopiyasi orqali tadqiq qilish vazifasi qo'yilgan.	Prof. O.Q.Quvondiqov	Prof.U.Yuldashev
344.	Yuldoshev Azamat Zarif o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Temir oksidi qo'shilgan kaliy-aluminoborat shishasining magnit xossalarini termjradiaision nurlanish ta'sirda o'rganish.	Termoradiatsiya ta'sirda o'ta past tarkibli ferromagnetlarda Issiqlik fluktuatsiyalari tufayli magnit gisterizis yo'qolib superparamagnetizm kuzatiladi. Ushbu ishda superparamagnetizmi aniqroq kuzatish uchun gamma nurlanish dozasi va temir konsentratsiyasiga qarab temirning domen tuzilishining magnitlanishi va mikroskopiyasi o'rganiladi.	Dots.M.K.Saloxiddi nova	Prof.O.Q.Quvondiqov
345.	Quvondiqov Akbar Oltiboy o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Siyrak yer elementlarining indiy metali bilan intermetallik birikmalarining yuqori temperaturalardagi elektr qarshiligini o'rganish.	Zamonaviy texnika, elektronika va elektrotexnikada siyrak yer elementlarining turli xil metallar bilan hosil qiladigan birikmalari unikal elektrik, magnit, optic xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun keng foydalanib kelinmoqda. Bunday materiallarning foydalanish sohasini kengaytirish va xossalarini yanada mukammallashtirish maqsadida ularning fizik xossalarining tadqiqoti davom ettirilmoqda. Shu maqsadda ularning elektr qarshiligining temperaturaga bog'liqligini yuqori temperaturalarda o'rganish muhim masalalardan hisoblanadi.	Dots.N.S.Hamrayev	Dots.R.M.Rajabov
346.	Abduvasiyev Sardor Baxrom o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Amorf ferromagnit qotishmalarning magnitlanishini o'lchash	Ushbu ishda temir guruhi elementlari Co-Fe va Fe-Ni asosidagi amorf qotishmalarning temperaturaga va metalloidlarning	Dots.I.Subhonqulov	Dots.N.S.Hamrayev

			asosida magnit parametrlarni hisoblash	<p>konsentratsiyasiga bog'liqligi o'rganiladi. Olingan eksperimental natijalar asosida Bloxning <math>T^{3/2}</math> qonuni amorf qotishmalar uchun ham o'rinli ekanligi tekshiriladi. Blox qonunidagi <math>\Delta I/I</math> ning <math>T^{3/2}</math> ga bog'lanishini ifodalovchi koeffitsient <math>B</math> aniqlanib, shu asosida dispersiya koeffitsienti <math>D</math> ning Kyuri temperaturasi <math>T_c</math> ga nisbati <math>D/T_c</math> ning metalloidlar konsentratsiyasiga bog'liqligi ham aniqlanadi.</p> <p>Olingan natijalar asosida <math>A_{eff}</math> almashinuv inergiyasi hisoblanadi va bu natijalar nazariy hisoblangan magnit atomlari o'rtasidagi almashinuv integrali bilan solishtiriladi va tegishli xulosalar qilinadi.</p>		
347.	Akramov Jamshid Abduraxmonovich	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Singulyarlik va uni fizika ga qo'llash orqali bo'lg'usi magistrnlarning dunyoqarashini shakllantirish (elektr va magnetizm kursi misolida).	<p>Dunyoning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yuz berayotgan bugungi globallashuv sharoitida fizika ta'limi barcha mamlakatlar uchun jamiyat barqarorligi va farovon turmushini ta'minlovchi asosiy kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.</p> <p>Singulyarlik va uni fizika (elektr va magnetizm kursi misolida) ga qo'llash ta'limda talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar orqali fizika fanini chuqur o'rganish, magistrlar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish hamda fizikaning yangi yo'nalishlari bo'yicha turli sohalarda mustaqil fikrlovchi, ijodiy faoliyatini qo'llay oladigan, ijodkor mutaxassislarni tayyorlash bugungi kun davr talabidir.</p>	Dots.B.U.Amonov	Prof. O'.T.O'sarov
348.	O'tashov Rashid Asatulla o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Disproziy va terbiy asosidagi xromoboratlarning magnit xossalarni yuqori temperaturalarda o'rganish.	<p>Kamyob yer metallari asosidagi xromoboratlar <math>DyCr_2(BO_3)_4</math> va <math>TbCr_2(BO_3)_4</math> magnit qabul qiluvchanligining temperaturaga bog'lanishi yuqori temperaturalar oralig'ida (300-1200 K) o'lchanadi. Ushbu namunalarning <math>\chi^{-1}(T)</math> bog'lanishlaridan foydalanib, ularning asosiy magnit xarakteristikalarini: Kyuri-Veyss doimiysi <math>C</math>, asimtotik Kyuri temperaturasi <math>\theta_a</math>, Nell temperaturasi <math>T_N</math>, namuna kimyoviy formula</p>	Dots. Z.M.Shodiyev	Dots.R.M.Rajabov

				<p>birligiga to'g'ri keluvchi effektiv magnit momenti hisoblanadi. Namunalarning differensial termik tahlili qilinadi.</p> <p>Tajriba va hisoblash natijalari chuqur tahlil qilinadi hamda mavjud zamonaviy nazariyalar asosida tushuntiriladi va tegishli xulosalar chiqariladi.</p>		
349.	Djabbarov Ma'ruf Maxsudovich	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Temir guruhi elementlari asosidagi tog' jinslari minerallari magnetit va pirotinning issiqlik xossalarini o'rganish	<p>Ma'lumki, tog' jinslari turli xil minerallardan tashkil topgan. tarkibida 3d-elementlari bo'lgan minerallarni magnit xossalarini yuqori temperaturada organish bo'yicha kafedrada ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Minerallarning electron tuzilishi va kristall strukturasi boyicha muhim ma'lumotlar olish uchun ularning issiqlik xossasini o'rganish muhim hisoblanadi. Shu maqsadda ushbu ushbu magistrlik dissertasiyasida Temir guruhi elementlari asosidagi tog' jinslari minerallari magnetit va pirotinning issiqlik sigimini o'lchash maqsad qilib qo'yildi.</p>	Dots.R.M.Rajabov	Dots.B.U.Amonov
350.	Temirov Shaxzodbek Salaydin o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Oziq-ovqat maxsulotlarining radioaktivligi	<p>Oziq-ovqat mahsulotlarining radioaktivligi avvalambor tabiiy radionulidlarning atrof-muhitda tarqalganligidan bog'liq. TRN ning miqdori ishlov berilgan yerdagi o'simliklar tarkibida turli variatsiya miqdorida bo'ladi. Miqdorning o'zgarishi asosan yerning qaysi mavsumda sug'orilish va kimyoviy o'g'itlar bilan ta'minlanishiga bog'liq. Dukkakli o'simliklar uzoq vaqt mobaynida pishib yetishadi. Shuning uchun bunday o'simliklar tarkibida TRN larning miqdori boshqa turdosh poliz ekinlariga qaraganda ko'proq to'planadi. Shu sababli dukkakli o'simliklarning radioaktivligini o'rganish muhim ahamiyatga ega.</p>	T.M.Mo'minov O'zFA akademigi, professor	I.Xolboyev f.-m.f.d., O'zMU professori
351.	Sayfiyev Sherzod Shavkat o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Narpay va Paxtachi tumanlaridagi quruq havo tarkibidagi kosmogen radionuklidlar aktivligini yarimo'tkazgichli gamma-spektrometr yordamida o'rganish.	<p>Hozirgi kunda atmosferadagi jarayonlar va iqlim o'zgarishlari iqtisodiyotning rivojlanishida muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun atmosfera tushuvlarining (yomg'ir, qor) radioaktivlik miqdorini yadro-fizikaviy usullar yordamida o'rganish o'zining tezkorligi va kichik vaqt ichida ko'plab elementlar miqdorini aniqlashi bilan boshqa usullardan ajralib turadi.</p>	R.M.Eshbo'riyev f.-m.f.n. dotsent	T.M.Mo'minov O'zFA akademigi, professor



352.	Hazratov Diyor Matyakub o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Proton-terapiyasining onkoneyroxirurgiyada qo'llanilishi va samaradorligi.	Tibbiyot diagnostikasi va terapiyasi zamonaviy yadro-fizikaviy asbob-uskunalarda amalga oshiriladi. Onkologiyadagi turli xil potologik o'zgarishlarni diagnostikasi va davolash (terapiyasi) xirurgiyada tezlashtirilgan protonlar, elektronlar dastasi yordamida amalga oshirilmoqda va yuqori samara bermoqda. Shuning uchun yadro fizikaviy usullar fizikasi va radiokimyosi dolzarb bo'lib qolmoqda.	R.M.Eshbo'riyev f.-m.f.n. dotsent	E.Bozorov O'zMU Yadro fizikasi kafedrası professori f.-m.f.d.
353.	Siddiqov Abdumalikxon Bahodir o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	SamDU Yadro fizikasi laboratoriyasi atrofıdagi maydonlarning tuproqlari radioaktivligini monitoring qilish	Maydonlarning radioaktivligini monitoring qilish hozirgi kundagi ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Monitoring qilishda tabiat namunalari (tuproq, suv, o'simliklar)ning radioaktivligini ssintillyasion gamma-spektrometr yordamida baholash o'zining tezkorligi va kichik vaqt ichida ko'plab elementlarni tahlil qilishligi bilan ajralib turadi.	O.B.Mamatqulov f.-m.f.n. dotsent	A.N.Safarov f.-m.f.n. katta ilmiy xodim, YaFL mudiri
354.	Asrorov Xushbaxt Akparjonovich	5A140201-Fizika (iynalishlar b'uyicha)	Пректирование оптимальный модернизации установки для исследования зеркального отражения жёсткого гамма-излучения.	Явления полного внешнего отражения, обнаруженного в мягком рентгеновском диапазоне электромагнитного излучения ( $\lambda > d$ ), где $\lambda$ -длина волны излучения, а $d$ -расстояния между соседними атомами отражателя, в классической волновой оптике связано с понятием показателя преломления, которые свойственно непрерывной границе раздела между двумя средами. Между тем, в области гамма-излучения ( $\lambda \ll d$ ) преобладают корпускулярные свойства, и оно обычно рассматривается как поток гамма-квантов.	X.Xasanov t.f.d. профессор	P.Сулейманов ЯФЛ катта илмий ходим
355.	Yakubov Nazar Qo'chqar o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Tibbiyot diagnostikasi va terapiyasida yadro fizikaviy usullar	Tibbiyot diagnostikasi va terapiyasi zamonaviy yadro-fizikaviy asbob-uskunalarda amalga oshiriladi. Yadro fizikaviy usullar yordamida ishlaydigan tibbiyot asbob uskunalari organizmdagi turli xil patologik kasalliklarni tezkorlik bilan aniqlash imkonini beradi. Hozirgi kunda diagnostikada radioaktiv izotoplar keng qo'llanilmoqda.	U.R.Arzibekov f.-m.f.n. dotsent	A.N.Safarov f.-m.f.n. katta ilmiy xodim, YaFL mudiri
356.	Hayitov Shuxrat Asomiddin o'g'li	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Atmosfera ho'l va quruq tushuvlarining balandlik bo'yicha o'zgarishi	Tushuvlardagi radioaktiv elementlarning balandlik bo'yicha taqsimoti yordamida ho'l va quruq tushuvlarda tabiiy, texnogen, kosmogen	G.Axmedova f.-m.f.n. dotsent	A.N.Safarov f.-m.f.n. katta ilmiy xodim, YaFL mudiri

				radionuklidlar solishtirma aktivligining o'zgarishi NaJ (Tl) kristalli ssintilyasion gamma-spektrometrdan aniqlanadi.		
357.	Fayzullayeva Mohichehra Maxmud qizi	5A140201-Fizika (yo'nalishlar bo'yicha)	Jizzax viloyatining Baxmal tumanida aholi yashaydigan bino inshootlarining radioaktiv radon (Rn-222) gazining vaqt variyasiyasi.	Aholi yashaydigan binolarning asosiy qurilish materiallarining tarkibida tabiiy va sun'iy radioaktiv elementlarning yemirilishi natijasida radioaktiv gaz radon-222 izotopi hosil bo'ladi. Bu izotop suvda yaxshi eriydi hamda havo va suv orqali odamning ichki organizmiga tushib turli xil patologik o'zgarishlarga olib keladi. Shu sababli hozirgi kunda radon-222 radioaktiv gazini o'rganish dolzarbdir.	O.Mamatqulov f.-m.f.n. dotsent	Tayanch doktorant U.To'xtayev
358.	Muhiddinov Shoxrux Xusniddinovich	5A140301-Mexanika va matematika modellashtirish	Bir cheti biki mahkamlangan, ikkinchisi sharnirli tayangan ikki qatlamli plastinkaning simmetrik tebranishlari	Ushbu magistrlik dissertasiya ishi bir cheti biki mahkamlangan, ikkinchisi sharnirli tayangan ikki qatlamli plastinka-ning simmetrik tebranishlarini tadqiqqa bag'ishlanadi. Ikki qatlamli plastinkaning simmetrik tebranishlari uchun asosiy tebranish tenglamalari keltirib chiqariladi va hisob modeli yaratiladi. Olingan natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosalar chiqariladi, amaliy tadbir uchun tavsiyalar beriladi.	t.f.d. prof. X.Xudoynazarov	t.f.n. dots. Sh.Berdiyev SamDU
359.	Muhammadiyahva Maftuna Akbar qizi	5A140301-Mexanika va matematika modellashtirish	Chetlari biki mahkamlangan, ikki qatlamli plastinkaning simmetrik tebranishlari	Maskur dissertasiya ishida chetlari biki mahkamlangan, ikki qatlamli plastinkaning simmetrik tebranishlari qaraladi. Chetlari biki mahkamlangan ikki qatlamli plastinkaning simmetrik tebranishlari uchun asosiy tebranish tenglamalari keltirib chiqariladi va hisob modeli yaratiladi. Olingan natijalar grafiklar orqali tahlil qilinadi va tegishli xulosalar chiqariladi.	t.f.d. prof. X.Xudoynazarov	f.-m.f.n.(PhD) katta o'qituvchi Z.Xudayberdiyev SamDU
360.	Rasulov Baxodir Nazar o'g'li	5A140301-Mexanika va matematika modellashtirish	Chetlari biki mahkamlangan, ikki qatlamli plastinkaning antisimmetrik tebranishlari	Ishda chetlari biki mahkamlangan, ikki qatlamli plastinkaning antisimmetrik tebranishlariga tadqiq qilinaadi. Ikki qatlamli plastinkaning chetlari biki mahkamlangan holatidagi antisimmetrik tebranishlari uchun asosiy tebranish tenglamalari keltirib chiqariladi va amaliy masalalar yechiladi. Yechilgan masalalar asosida tegishli xulosalar chiqariladi.	t.f.d. prof. X.Xudoynazarov	f.-m.f.n. dots. O.Abdullayev SamDU
